

.....

EHTIROSDAN TAFFAKUR SARI

Yulduzxon Solijonova

Qo‘qon davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek she‘riyatining yirik namoyandasi Erkin Vohidov ijodida metafora va ramzning poetik tafakkurni shakllantirish hamda badiiy mazmunni ifodalashdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda metafora va ramzning shoir she‘riyatidagi semantik, estetik, falsafiy hamda konseptual funksiyalari ochib berilib, ularning inson, jamiyat, tarix, milliy xotira va umuminsoniy qadriyatlarni badiiy ifodalashdagi imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: poetik tafakkur, metafora, ramz, poetik obraz, konseptual metafora, badiiy obraz, ramziy obraz, metaforik ifoda, semantik qatlam.

Adabiyotning umrboqiyiligini ta‘minlovchi ikkita qudratli omil bor. Ularning biri adabiyotning g‘oyat buyuk tarbiyaviy-ma‘rifiy ahamiyati bo‘lsa, ikkinchisi, uning insonlarga zavq-shavq berish xususiyatiga egaligidir. Zero, inson har qanday davrda, har qanday sharoitda ham busiz yasholmaydi, doimo tarbiyaga, va badiiy zavq olishga muhtoj. Ana shu xususiyatiga ko‘ra, tarbiyaviy-estetik ahamiyatga ega bo‘lgan yetuk asarlarga aslo zavol yo‘q. Ushbu maqola o‘zbek adabiyoti she‘riyatining yirik namoyondalaridan Erkin Vohidov va Iqbol Mirzo she‘riyatida sevgi mavzusida umumiy va farqli jihatlarni o‘rganishga qaratilgan.

Erkin Vohidov (1936–2016) – o‘zbek she‘riyatida insoniy tuyg‘ular, milliy qadriyatlar va ma‘naviy poklik yuksak darajada ifodalangan. Uning lirikasida sevgi markaziy mavzulardan biri bo‘lib, bu tuyg‘u faqat ehtiros yoki shaxsiy his emas, balki ruhiy va ma‘naviy kamolot manbai sifatida talqin etiladi.

Shoir sevgi haqida yozar ekan, uni inson qalbining yuksalish holati sifatida ko‘radi. U uchun muhabbat – nafaqat ikki inson o‘rtasidagi tuyg‘u, balki butun borliq bilan uyg‘unlashuv, Yaratganga yaqinlashish yo‘lidir. Misol uchun, uning mashhur satrlarida bunday ma‘no aks etadi:

*“Sevgi – bu insonni inson qilgan kuch,
Sevgi – bu ruhni poklovchi nur [4;65].*

Bu misralarda sevgi – nafsiy ehtiros emas, ruhiy yuksalish, ezgulik sari yo‘l sifatida talqin etilgan. Erkin Vohidovning sevgi mavzusiga bag‘ishlangan ko‘plab she‘rlari mavjud:

*O‘n sakkizga kirmagan kim bor,
Bog‘ingdan gul termagan kim bor.
Sen haqingda yozib to‘rt satr,
Sirdoshiga asta ko‘rsatib,
Qo‘shni qizga bermagan kim bor [4;75].*

Shoir bu she‘rni 1959-yilda yozadi. Ushbu she‘rda sevgidan sarmast bo‘lgan oshiq gavdalanadi. Bilamizki, insonning eng gullagan payti 18 yoshiga to‘g‘ri keladi. “O‘n sakkizga kirmagan kim bor” she‘ri yoshlik, muhabbat va pok tuyg‘ularning kuyi bo‘lib, inson qalbidagi eng beg‘ubor hislarni ifodalaydi.

*Dastlab har kim qalam olgan on
Yonib seni kuylar begumon.
Maskan qurib har bir ko‘ngildan,
Oshiqhlarni qoldirib tildan,
Shoirlarni qilursan biyron.
Tushdim chog‘i men ham domingga,
Ezgu hislar baxsh etding menga,
Hayotimga zar lavha bo‘lding,
Ilk she‘rimga sarlavha bo‘lding,
Xayollarim ulfatdir senga.*

Shoir bu she‘rda yoshlik davrining jozibasini, sevgi tuyg‘usining go‘zalligini va insonni yuksaltiruvchi kuchi aynan sevgi ekanligini tasvirlaydi. Yoshlik va birinchi muhabbat she‘rning markazida turadi. Shoir “O‘n sakkiz yosh” timsoli orqali har bir inson hayotidagi eng go‘zal pallani – orzular, his-tuyg‘ular va ilhomga to‘la davrni ko‘rsatadi:

*Yuragimda his etdim qanot,
Tilsim kabi ochilur hayot,*

*Visoldagi damlarim shirin,
Hijrondagi g‘amlarim shirin,
Kulib boqar menga koinot...
O‘n sakkizga kirmagan kim bor,
Bog‘ingdan gul termagan kim bor [4;42-45].*

Asarning bosh g‘oyasi – muhabbat, u insonni yuksaltiradi, his-tuyg‘ularini poklaydi, hayotni mazmunli qiladi. Mazkur she’rda ko‘plab badiiy tasvir vositalarini ko‘rish mumkin: “Bog‘ingdan gul termagan kim bor” – bu o‘xshatish orqali muhabbat bog‘, sevgan inson esa shu bog‘dagi gulga tenglashtirilib, hayot va muhabbat uyg‘unligi ifoda etmoqda.

Shoir “Tushdim chog‘i men ham domingga” deya sevgi “dom”ga, ya’ni sehrli tuzoqqa tushganligi tasvirlab, muhabbatning qarshisida inson ojiz, ammo shu ojizlikda go‘zallik borligini ifodalayapti. Hayotiga “zar lavha” bo‘lishini, sevgi inson hayotining, xususan, shoir hayotning bezagi, oltin sahifasi ekanligini ta’riflamoqda. Bu metafora orqali sevgi hayotni bezab turuvchi, chiroyli qiluvchi kuch sifatida talqin etilmoqda. “Yuragimda his etdim qanot” – deya shoir sevgini odamga uchish, orzulariga parvoz bag‘ishlovchi “qanot”ga o‘xshatishi orqali inson ruhining yuksalish qiyoslamoda.

She’rdagi o‘ynoqi ohang, samimiyatga hamda mehrga to‘la satrlarni o‘qigan har bir o‘quvchi beixtiyor o‘zining o‘n sakkiz yoshini hayajon, orzu, sog‘inch bilan yodga oladi. Shoir muhabbatni og‘riq emas, balki hayotni bezovta qiluvchi, ammo go‘zal his sifatida ko‘rsatadi:

*“Visoldagi damlarim shirin,
Hijrondagi g‘amlarim shirin...”*

Bu misralarda shoir muhabbatning ikki tomonini: quvonch va g‘ammi – birday aziz deb biladi. Chunki muhabbat hayotning o‘zidir. Erkin Vohidov muhabbatni faqat shaxsiy tuyg‘u emas, balki hayotga ishonch, orzu va ilhom manbai sifatida talqin qiladi. Shoir uchun o‘n sakkiz yosh bu hayotning eng shirin, eng go‘zal pallasi – bu faqat yosh ko‘rsatkich emas, balki inson qalbining bahori, beg‘uborlik va orzularga to‘la davridir. “Sevgi” – bu she’rda shoir muhabbatni hayot mazmuni, yurakni uyg‘otuvchi tuyg‘u deb ataydi. Ijodkor bu she’rida muhabbatni insonni yuksaltiruvchi,

ruhini tozalovchi kuch sifatida tasvirlaydi.

Erkin Vohidov uchun sevgi hayotni go‘zallashtiruvchi, insonni ezgulik sari yetaklovchi ma’naviy hodisadir. U o‘z she’rlarida muhabbatni quyidagi uch darajada ifodalaydi: Ehtirosiy sevgi – yoshlikdagi ilk tuyg‘ular, orzular. Ruhiy sevgi – inson qalbining poklanishi, sadoqat va ishonch. Falsafiy sevgi – insonni butun borliqni sevishga, hayotga minnatdorlik bilan qarashga o‘rgatuvchi yuksak tuyg‘u. Shunday qilib, Erkin Vohidov sevgi orqali hayot falsafasini, insoniy komillik g‘oyasini ifodalagan.

Iqbol Mirzo she’riyati o‘zining yorqinligi bilan boshqalardan ajaralib turadi. “Sevmading” she’ri Iqbol Mirzoning 1993-yilda yozilgan mashhur lirik asarlaridan biridir. She’rda muhabbat, iztirob, yolg‘izlik va ichki kechinmalar markazda turadi. Lirik qahramon o‘z sevgisining javobsiz qolganidan dard chekadi, ammo bu dardni nolish emas, balki ruhiy yetuklikka eltuvchi tajriba sifatida ifodalaydi. Asarda javobsiz muhabbat motivi orqali insoniy tuyg‘ularning chuqurligi, sevgi va azob o‘rtasidagi murakkab munosabat ochiladi. Lirik qahramon sevgisiga yetolmaydi, ammo u sevgining buyukligini, hatto iztirob bilan ham go‘zalligini tan oladi:

*“Sevmading san, diltoshim,
Dilimga cho‘kdi qo‘rg‘oshin...” [3;40-45].*

Bu misralarda “qo‘rg‘oshin” so‘zi og‘irlik, dard, yurakka botgan g‘am ramzidir. Shu orqali shoir ichki og‘riqni aniq va obrazli ifodalagan.

Ijodkor she’rda badiiy tasvir vositalaridan o‘xshatish, metafora va timsollardan o‘rinli foydalangan. “G‘amkash buloq sevmish mani” deya shoir o‘zining ruhiy holarini ko‘z yoshlari oqayotgan g‘amli buloqqa o‘xshatyapti.

Oshiq holi shunday zabunki, “keksa yaproq, singan chaqmoq” sevadi, ammo yorining sevgisi va marhamatidan umid yo‘q, satrlarda oshiq holatining yorqin tuyg‘ularning so‘nishini ifodalaydi va oshiq iztirobini chuqurroq his ettirishga e’tibor qaratadi.

She’r besh banddan iborat bo‘lib, har bir band “Sevmading san” takrori bilan boshlanadi. She’rda muhabbatning ilohiy, yuksak mohiyati haqida fikr bor. Shoir xalq tilini yaxshi biladi: “Alloh suygan bandasiga dard beradi” hikmatli so‘zi so‘nggi bandda shoir dardni Tangrining in’omiga sifatida baho beradi:

*“Suyganiga dardlar bergan,
Tangri ko‘proq sevmish mani” [3;30-35].*

Bu yerda muhabbat sinov sifatida talqin qilinadi: kim dard chekkan bo‘lsa, demak, u aslida haqiqiy sevgi va hayot ma’nosini chuqurroq his etgan.

“Sevmading” – bu faqat javobsiz sevgi haqida emas, balki inson qalbining yetilishi, ruhiy poklanish, muhabbat falsafasi haqida yozilgan she’rdir. Iqbol Mirzo bu asarda og‘riqni go‘zallikka aylantiradi – bu esa uning lirik iste’dodining eng yorqin belgisi hisoblanadi [2;52-54].

Erkin Vohidov va Iqbol Mirzo ijodi o‘zbek she’riyatining ikki avlodini, ikki davr ruhiyatini aks ettiradi. Har ikkala shoir ijodining markazida inson qalbi va sevgi falsafasi turadi, ammo ularning badiiy dunyoqarashi, uslubi va tuyg‘ularni ifodalash yo‘li bir-biridan farq qiladi. Erkin Vohidov sevgi va insoniy tuyg‘ularni hayot quvonchi, yoshlik shukuhining timsoli sifatida talqin etadi. Uning “O‘n sakkizga kirmagan kim bor” kabi she’rlarida sevgi – insonni yashashga, orzu qilishga, ezgulikka chorlaydigan tuyg‘u. Shoir muhabbatni hayotning musaffo, quvonchli kuchi deb biladi. Uning lirik qahramoni sodda, samimiy va orzuga to‘la. Bu she’rlarda yurak iztirobi emas, balki hayotbaxsh iliqlik ustun.

Iqbol Mirzo esa sevgi mavzusiga ruhiy kechinma va falsafiy iztirob nuqtayi nazaridan yondashadi. U sevgi dardini yashirmaydi, balki uni insonni yetuklik sari olib boradigan holat sifatida ko‘rsatadi. “Sevmading” she’rida sevgi javobsiz qolgan, ammo bu iztirob shoirni ruhiy jihatdan yuksaltiradi. Lirik qahramonning so‘zlarida dard bilan falsafa, iztirob mazmuni, ammo Erkin Vohidov ijodida bu mazmun quvonch va umid bilan, Iqbol Mirzo ijodida esa og‘riq va ichki izlanish bilan uyg‘unlashadi. Shu jihatdan Iqbol Mirzo lirikasida zamon odamini o‘ylash, ruhiy yakdillikni izlash ko‘proq seziladi. Erkin Vohidov esa milliy ruh, an’anaviy poklik va yoshlarning orzularini kuylaydi. Shunday qilib, Erkin Vohidov – sevgining hayotbaxsh, orzuga yo‘g‘rilgan qirralarini, Iqbol Mirzo esa – sevgining iztirobli, ruhiy-falsafiy chuqurliklarini tasvirlaydi. Ikkisini birlashtiradigan jihat shundaki, har ikkisi ham sevgini insoniy kamolotning asosi deb biladilar.

Erkin Vohidov va Iqbol Mirzo ijodi orqali o‘zbek she’riyatida sevgi va insoniy tuyg‘ularning ikki xil talqini namoyon bo‘ladi. Vohidov – sevgi quvonch, samimiyat

va hayotbaxsh tuyg‘u manbai sifatida, Mirzo – sevgi iztirob, ichki mushohada va ruhiy poklanish vositasi sifatida. Har ikkala shoirning lirik qahramonlari o‘z davrining ruhiy portretini aks ettiradi: Vohidovning qahramoni umidvor va iliq, Mirzoning qahramoni esa dardli va o‘ychan. She’riy vositalar orqali (metafora, o‘xshatish, timsol) shoirlar o‘quvchini tuyg‘u va falsafiy mushohadaga chorlaydi. Ikkala shoir ijodi o‘zbek lirikasida sevgining ikki qutbini – quvonch va iztirob, umid va mushohada birlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov va Iqbol Mirzo ijodi o‘zbek adabiyotida inson qalbi, sevgi va hayot falsafasining turli qirralarini ifoda etadi. Erkin Vohidov she’riyatida sevgi hayot quvonchi, yoshlar orzusi va pok tuyg‘ular timsoli, Iqbol Mirzoda esa sevgi ruhiy sinov, dard orqali poklanish va falsafiy mushohada manbai sifatida tasvirlanadi. Har ikkisi o‘z davrining ruhini, inson qalbidagi kechinmalarni samimiy va badiiy ifoda etgan. Vohidov she’rlari xalqona iliqlik va orzuga boy lirika, Mirzo she’rlari esa zamonaviy insonning dardli, ammo chuqur mushohadali ovozidir. Demak, bu ikki shoir ijodi orqali o‘zbek lirikasida sevgining ikki qutbi – quvonch va iztirob, umid va mushohada birlashadi. Ularning asarlari o‘quvchini nafaqat tuyg‘ularga, balki hayot, muhabbat va insoniylik mohiyatini anglashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzo Iqbol. Sevmading. –Toshkent: Tafakkur, 1993.
2. Mirzo Iqbol. Yuragimga kirma. –Toshkent: Yosh gvardiya, 2001.
3. Qodirov Sh. O‘zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent: Fan, 2010.
4. Vohidov Erkin. O‘n sakkizga kirmagan kim bor. –Toshkent: Sharq, 1972.
5. <https://tafakkur.net/sevmading/iqbol-mirzo.uz>
6. Ibragimova, D. I. (2024). AN ANALYSIS OF ISAJON SULTON’S HISTORICAL PROSE: ERA, HEROES, THEMES, AND IDEAS. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(05), 120-127.
7. Dildora, I. (2024). ISAJON SULTONNING TARIXIY HIKOYALARIDA MAVZU VA GOYA.
8. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she’riyatda Bobur g‘azallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.
9. Abdullayeva, O. O. Q., & Abdullayeva, M. O. Q. (2021). QALBGA YAQIN SATRLAR. *Scientific progress*, 2(3), 138-142.
10. Abdullayeva, M. O. Q. (2023). RAQAMLI RESURLAR ASOSIDA ADABIYOT

DARSLARINI O 'QITISH USULLARI. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 7-11.

11. Isoxonovich, X. M. (2025). AHMAD ZAKI VALIDIYNING TARIXDA PARADIGMAL YONDASHUVLARI. *Alfraganus Universiteti Konferensiya Materiallari*, 5(1), 883-890.

12. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). THE PLACE OF ECOLOGY IN THE VALUE SYSTEM OF YOUTH IN TRADITIONAL SOCIETIES (BASED ON THE CASE STUDY: A SOCIOLOGICAL RESEARCH CARRIED OUT RECENTLY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN). *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 35-48.

13. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). ARISTOTLE'S LOGICAL DOCTRINE TRANSFORMATION IN EASTERN PERIPATETICS WORKS. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 4-13.

14. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.